

## GERMANIYADA DEMOGRAFIK O'ZGARISH VA MEHNAT BOZORI KELAJAGI

**Ashuraliyev Firdavs Umidjon o'g'li**

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

*Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*e-mail; firdavsashuraliyev865@gmail.com [882050809]*

**Xaydaraliyeva Dilnoza Jahongir qizi**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*Xalqaro munosabatlar ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Germaniyada kechayotgan demografik transformatsiyaning mehnat bozorining tarkibiy va uzoq muddatli rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi mamlakatda tug'ilish darajasining uzoq muddat davomida nisbatan pastligi, aholining umr ko'rish davomiyligi ortishi hamda Baby-boomer avlodining mehnat bozorida bosqichma-bosqich chiqishi natijasida mehnat yoshidagi aholi ulushining qisqarib borayotgani bilan belgilanadi. Tadqiqotda demografik o'zgarishlarning mehnat taklifiga ta'siri, mehnat bozoridagi malaka nomutanosibligi hamda xalqaro migratsiyaning kompensatsion salohiyati o'rganiladi. Shuningdek, ayollar va katta yoshdagi aholining iqtisodiy faolligini oshirish, uzluksiz ta'lim va qayta tayyorlash, raqamlashtirish hamda sun'iy intellekt asosidagi texnologik transformatsiyaning mehnat resurslari qisqarishini yumshatishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Germaniyaning demografik bosimga javobi faqat migratsiyani kengaytirish bilan cheklanmasligi, balki migratsiya siyosati, inson kapitalini rivojlantirish, mehnat bozoridagi ishtirokni kengaytirish va mehnat unumdorligini oshirishni o'z ichiga oluvchi kompleks institutsional strategiyaga tayanishi zarurligini ko'rsatadi.

### ABSTRACT

This article analyzes the impact of the ongoing demographic transformation in Germany on the structural and long-term development of the labor market. The relevance of the study is determined by the persistently low birth rate, increasing life expectancy, and the gradual withdrawal of the baby-boomer generation from the labor market, which is contributing to a decline in the share of the working-age population. According to Germany's 16th Coordinated Population Projection, by 2035, the share of the population aged 67 and over is expected to reach one in four people, while the population aged 20–66 is projected to decline substantially over the long term. These processes have a direct

impact on the availability of labor resources, skilled labor shortages, the sustainability of the pension system, and the potential for economic growth.

The study examines the impact of demographic changes on labor supply, skills mismatches in the labor market, and the compensatory potential of international migration. It also analyzes the role of increasing the economic participation of women and older population groups, lifelong learning and reskilling, digitalization, and technological transformation driven by artificial intelligence in mitigating the effects of declining labor resources. The findings indicate that Germany's response to demographic pressures should not be limited to expanding migration but should instead be based on a comprehensive institutional strategy encompassing migration policy, human capital development, increased labor market participation, and higher labor productivity.

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируется влияние происходящей в Германии демографической трансформации на структурное и долгосрочное развитие рынка труда. Актуальность исследования обусловлена устойчиво низким уровнем рождаемости в стране, увеличением продолжительности жизни, а также постепенным выходом поколения бэби-бумеров с рынка труда, что приводит к сокращению доли населения трудоспособного возраста. Согласно 16-й координированной демографической прогнозной оценке Германии, к 2035 году доля населения в возрасте 67 лет и старше достигнет одного человека из четырёх, тогда как численность населения в возрасте 20–66 лет в долгосрочной перспективе существенно сократится. Данные процессы оказывают непосредственное влияние на обеспечение экономики трудовыми ресурсами, дефицит квалифицированных кадров, устойчивость пенсионной системы и потенциал экономического роста.

В исследовании рассматриваются влияние демографических изменений на предложение рабочей силы, несоответствие квалификаций на рынке труда, а также компенсаторный потенциал международной миграции. Кроме того, анализируется роль повышения экономической активности женщин и населения старших возрастных групп, непрерывного образования и профессиональной переподготовки, цифровизации и технологической трансформации на основе искусственного интеллекта в смягчении последствий сокращения трудовых ресурсов. Результаты исследования показывают, что ответ Германии на демографическое давление не должен ограничиваться расширением миграции, а должен основываться на комплексной институциональной стратегии, включающей миграционную политику,

развитие человеческого капитала, расширение участия населения в рынке труда и повышение производительности труда.

**Kalit soʻzlar:** demografik oʻzgarish, Germaniya, mehnat bozori, aholining qarishi, mehnat resurslari, Baby-boomer avlodi, mehnat migratsiyasi, malakali kadrlar, mehnat unumdorligi, inson kapitali, iqtisodiy oʻsish.

## KIRISH

XXI asrda demografik transformatsiya iqtisodiy rivojlanishning asosiy tarkibiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. Tugʻilish darajasining pasayishi, umr koʻrish davomiyligining uzayishi va aholining yosh tarkibidagi siljishlar rivojlangan iqtisodiyotlarda mehnat resurslarining shakllanish mexanizmlarini tubdan oʻzgartirmoqda. Mazkur jarayon faqat aholining son jihatdan qisqarishi bilan cheklanmay, balki mehnat bozorida ishchi kuchining yosh, malaka va kasbiy tarkibining oʻzgarishi, ijtimoiy taʼminot tizimlariga tushadigan bosimning kuchayishi hamda iqtisodiy oʻsishning potensial surʼatlariga taʼsir koʻrsatishi bilan tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, demografik oʻzgarishlarni mehnat bozori va iqtisodiy siyosat bilan uzviy bogʻliq holda tadqiq etish alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holat Germaniya uchun eng muhimdir. Yevropaning yirik iqtisodiyotlaridan biri boʻlgan Germaniyaning ishlab chiqarish va eksport salohiyati yuqori darajada malakali hamda yetarli miqdordagi mehnat resurslariga tayanadi. Biroq mamlakatning yosh tarkibidagi uzoq muddatli oʻzgarishlar ushbu modelning demografik asoslarini zaiflashtirmoqda. Germaniyaning Federal Statistika Idorasi tomonidan 2025-yil dekabr oyida taqdim etilgan aholi prognoziga koʻra, 2035-yilga kelib mamlakat aholisining har toʻrtinchisi 67 yosh yoki undan katta boʻlishi kutilmoqda. 2024-yilda 20–66 yoshdagi aholi 51,2 million kishini tashkil etgan boʻlsa, 2070-yilga kelib ushbu koʻrsatkich migratsiyaning turli ssenariylariga qarab 37,1 milliondan 45,3 milliongacha kamayishi mumkin. Mazkur prognozlar demografik qarish Germaniyada vaqtinchalik emas, balki uzoq muddatli tarkibiy jarayon ekanligini koʻrsatadi. Anʼanaviy yondashuvga koʻra, mehnat taklifining qisqarishi ishlab chiqarish salohiyatini pasaytirishi taʼbiydir. Germaniya boʻyicha Axel Börsch-Supan tadqiqotlari ham aynan mehnat resurslari qisqarishini yuqori unumdorlik va inson kapitaliga investitsiya orqali kompensatsiya qilish zarurligini taʼkidlaydi. Ammo Acemoglu va Restrepo qarashi bundan murakkabroq: ular aholining qarishi avtomatik ravishda iqtisodiy stagnatsiyaga olib kelmasligini, kuchliroq qarish ayrim mamlakatlarda avtomatlashtirishning tezroq joriy etilishi bilan birga kechganini koʻrsatadi. Germaniyada demografik qarish sabab mehnat kuchi potentsiali sezilarli qisqarishini koʻrsatadi. Fuchs, Söhnlein va Weberning hisob-kitoblarida demografik omillarning oʻzi 2020–2060-yillarda mehnat kuchi potentsialini 16

mln kishiga kamaytirishi mumkinligi ko'rsatilgan; ayollar va katta yoshdagi aholining bandligi hamda migratsiya bu ta'sirni yumshatadi.

Sharqiy Germaniyada Baby-boomer avlodining pensiyaga chiqishi yosh ishchilar oqimi bilan to'liq qoplanmasligi mumkin. Germaniya mehnat kuchi potensialini barqarorlashtirish uchun yiliga taxminan 400 ming kishilik sof immigratsiyaga ehtiyoj sezadi. Biroq migrantlarning mamlakatda qolmasligi ham muhim masala: 2014–2023-yillarda xorijiy fuqarolarning o'rtacha emigratsiya darajasi manbaga qarab 6–11% oraliq'ida bo'lgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Germaniyadagi demografik transformatsiyaning mehnat bozoriga ta'sirini faqat mehnat resurslarining miqdoriy qisqarishi orqali emas, balki migratsiya, ichki mehnat salohiyatidan foydalanish, inson kapitali va texnologik unumdorlikning o'zaro kompensatsion mexanizmlari orqali kompleks baholashdan iborat. Germaniyaning demografik muammosi aslida aholi sonining qisqarishi muammosidan ko'ra, iqtisodiy faol aholining kamayishini qanchalik samarali kompensatsiya qilish muammosidir.

Germaniyada demografik qarish uzoq muddatli va tarkibiy jarayon bo'lib, uni faqat migratsiya orqali to'liq bartaraf etish mumkin emas. Hatto yuqori migratsiya ssenariysida ham 20–66 yoshdagi aholining 2024-yildagi 51,2 milliondan 2070-yilda 45,3 milliongacha qisqarishi prognoz qilinmoqda. Past migratsiya ssenariysida esa ushbu guruh 37,1 milliongacha tushishi mumkin.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Statistisches Bundesamt (Destatis). (2025). 16. koordinierte Bevölkerungsvorausberechnung: Deutschland – 2024 bis 2070. Wiesbaden: Statistisches Bundesamt.
2. International Organization for Migration. World Migration Report 2024.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development. International Migration Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_%E2%80%93\\_Germaniya\\_munos\\_abatlari](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_%E2%80%93_Germaniya_munos_abatlari) (murojaat qilingan sana: 12.09.2026).
5. Green Central Asia Initiative: Cooperation between Germany and Central Asian countries on climate, water resources and environmental protection.– Berlin, 2023